


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **17684,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **9,2** %ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **3711,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **128,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **13972,9** mlrd. so'mni (**105,0** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1166,9** mlrd. so'mni (**102,2** %) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **17684,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **9,2 %**ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **79,0 %** va yirik korxonalar hissasiga **21,0 %** to'g'ri keldi.




## ENG YUQORI ULUSH

Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Zangiota tumani **20,7 %** ulush bilan **3665,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Toshkent viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ohangaron tumani **1,0 %** ulush bilan **179,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar- sentyabr oylari yakuniga ko'ra **13972,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,0** %ga o'sdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Quyichirchiq (98,5 %), Oqqo'rg'on (98,2 %) va Bo'ka (97,2 %) tumanlari hamda Yangiyo'l (93,8 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan viloyatning aksariyat hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zangiota (135,6 %), Bo'stonliq (129,4 %) va Toshkent (112,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>17 684,5</b>	<b>109,2</b>	<b>3711,7</b>	<b>128,3</b>	<b>13 972,8</b>	<b>105,0</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	1 011,5	108,7	641,1	115,0	370,4	99,4
Olmaliq	1 169,9	103,9	164,2	76,8	1 005,7	110,2
Angren	1 120,0	78,5	293,9	36,5	826,1	132,9
Bekobod	700,5	103,1	140,1	63,2	560,4	122,3
Ohangaron	256,5	103,6	22,2	27,5	234,3	140,2
Chirchiq	1 038,2	106,8	247,5	2,8 m.	790,7	89,5
Yangiyo'l	969,1	102,9	60,1	247	909,0	99,0
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	536,8	101,6	9,7	93,2	527,1	101,8
Ohangaron	179,3	102,6	12,2	77,2	167,1	105,2
Bekobod	318,8	110,6	13,9	125,6	304,9	110,0
Bo'stonliq	1 024,6	129,4	402,3	160,7	622,3	114,9
Bo'ka	499,0	110,3	13,9	143,6	485,1	109,5
Quyichirchiq	323,4	108,0	4,9	112,3	318,5	108,0
Zangiota	3 665,5	135,6	1086,5	15,2 m.	2 579,0	98,0
Yuqori Chirchiq	476,2	103,7	25,2	173,6	451,0	101,5
Qibray	1 195,2	104,7	146,3	155,0	1 048,9	100,1
Parkent	516,5	104,1	15,9	184,5	500,6	102,7
Piskent	331,4	103,4	17,3	163,5	314,1	101,3
O'rta Chirchiq	265,9	103,7	29,5	65,5	236,4	111,9
Chinoz	669,0	100,2	90,9	48,8	578,1	120,1
Yangiyo'l	528,1	105,1	42,7	174,9	485,4	101,5
Toshkent	889,1	112,2	231,5	159,9	657,6	101,5

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **28,3** %ga o'sdi va **3711,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **21,0** % ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11782,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning sentyabr oylariga nisbatan **5,0** %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **79,0** %ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
TUMAN VA SHAHARLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Quyi Chirchiq (98,5%), Oqqo'rg'on (98,2 %), Bo'ka (97,2 %), Parkent (96,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 20,4 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nurafshon (63,4,%) shahri va Bo'stonliq (39,3 %) tumanida kuzatildi.






## TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar-sentyabr oylarida o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6079,5** ming so'mni (2020- yilning mos davriga nisbatan **11,1%**ga o'sdi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Zangiota (22766,8 ming so'm) tuman va Nurafshon (19452,7 ming so'm) shahar hissasiga to'g'ri keldi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan, % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>6 079,5</b>	<b>111,1</b>
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	19 452,7	102,0
Olmaliq	8 730,7	102,3
Angren	5 818,3	77,2
Bekobod	7 191,9	101,8
Ohangaron	6 511,2	100,4
Chirchiq	6 350,0	104,0
Yangiyo'l	15 530,4	100,2
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	5 016,6	100,2
Ohangaron	1 839,1	101,3
Bekobod	1 986,3	108,9
Bo'stonliq	5 967,5	128,0
Bo'ka	3 886,4	108,5
Quyi Chirchiq	2 921,4	105,8
Zangiota	22766,8	167,2
Yuqori Chirchiq	3 543,5	105,4
Qibray	7 013,8	123,4
Parkent	3 258,6	102,3
Piskent	3 229,8	102,0
O'rta Chirchiq	2 013,1	118,3
Chinoz	4 872,4	98,2
Yangiyo'l	2 505,2	105,5
Toshkent	4 810,9	110,1

**Asosiy tarkib, foizda**




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



Tohkent viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1166,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **2,2** %ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **424,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **116,1** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **742,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **95,7** %) tashkil etdi.





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **424,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **742,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1 166,9</b>	<b>102,2</b>	<b>424,9</b>	<b>116,1</b>	<b>742,0</b>	<b>95,7</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	1,7	33,4	1,7	33,4		
Olmalik	41,7	162,9	18,1	2,1 m.	23,6	138,5
Angren	33,5	86,6	33,5	86,6		
Bekobod	58,1	109,1	58,1	109,1		
Ohangaron	16,1	92,6	16,1	92,6		
Chirchiq	19,9	138,2	19,9	138,2		
Yangiyo'l	226,8	67,0	108,8	104,5	118,0	50,3
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	64,7	122,6	16,2	133,7	48,5	119,3
Ohangaron						
Bekobod	35,0	4,7 m.			35,0	4,7 m.
Bo'stonliq	103,1	3,0 m.	5,7	74,0	97,4	3,6 m.
Bo'ka	113,6	143,4	54,0	173,0	59,6	124,1
Quyi Chirchiq	40,9	2,1 m.	8,7	182,9	32,2	2,2 m.
Zangiota	36,8	69,6	2,3	123,5	34,5	67,6
Yuqori Chirchiq	11,3	131,9	11,3	131,9		
Qibray	175,6	81,1			175,6	81,1
Parkent	73,9	106,9	26,7	114,9	47,2	102,9
Piskent	58,9	94,7	11,7	78,5	47,2	99,8
O'rta Chirchiq						
Chinoz	35,3	157,1	22,9	2,0 m.	12,4	110,6
Yangiyo'l						
Toshkent	20,0	86,3	9,1	102,4	10,9	76,3



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



2,5  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



191,9  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



7,2  
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

42,1  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



13,8  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

48,4  
mlrd. so'm



**Tuxum**

48,4  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

14,1  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

3,7  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **424,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**191,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

8,0  
mlrd. so'm




**Ziravorlar**

44,9  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 742,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 487,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 137,5 mlrd. so'mni, otlar 113,0 mlrd. so'mni, parrandalar 4,0mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,5 %**ni tashkil etib, **438,2 mlrd. so‘m**ga yetdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan **8,6 %**ga o‘tdi. Bunda jami savdo aylanmasining **78,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar- sentyabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar- sentyabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar- sentyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>438,2</b>	<b>108,6</b>	<b>91,2</b>	<b>121,6</b>	<b>347,0</b>	<b>105,7</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	16,0	80,1			16,0	80,3
Olmalik	100,9	125,1	69,7	120,7	31,2	136,6
Angren	27,1	88,8			27,1	89,0
Bekobod	18,5	126,6			18,5	126,6
Ohangaron	25,8	147,8	15,1	136,2	10,7	167,2
Chirchiq	38,8	74,6	5,1	101,0	33,7	71,7
Yangiyo‘l	19,7	124,8			19,7	124,8
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo‘rg‘on	12,5	100,4			12,5	100,4
Ohangaron	5,6	128,2			5,6	128,1
Bekobod	6,0	120,7			6,0	121,5
Bo‘stonliq	15,2	111,0	1,2	2,9 m.	14,0	105,4
Bo‘ka	7,0	110,2			7,0	122,6
Quyichirchiq	5,7	121,8			5,7	122,5
Zangiota	32,5	140,7	0,1		32,4	140,2
Yuqorichirchiq	14,2	123,0			14,2	123,3
Qibray	25,0	72,4			25,0	72,4
Parkent	12,3	115,2			12,3	115,2
Piskent	6,6	151,4			6,6	151,3
O‘rtachirchiq	10,1	140,1			10,1	140,2
Chinoz	8,0	135,0			8,0	135,7
Yangiyo‘l	14,0	113,9			14,0	114,1
Toshkent	16,8	102,8			16,8	102,8



2020- yil  
yanvar-  
sentyabr

2021- yil  
yanvar-  
sentyabr

2021- yil  
yanvar-  
sentyabr



2020- yil yanvar-sentyabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **438,2** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 94,8 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **436,2** mlrd. so'm nodavlat mulkiga hamda **2,0** mlrd. so'm davlat mulkiga to'g'ri keldi.

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>438,2</b>	<b>100,0</b>	<b>436,2</b>	<b>94,8</b>	<b>2,0</b>	<b>5,2</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	16,0	3,7	16,0			
Olmaliq	100,9	23,0	100,9			
Angren	27,1	6,2	27,1			
Bekobod	18,5	4,2	18,5			
Ohangaron	25,8	5,9	25,8			
Chirchiq	38,8	8,9	36,8	94,8	2,0	5,2
Yangiyo'l	19,7	4,5	19,7			
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	12,5	2,9	12,5			
Ohangaron	5,6	1,3	5,6			
Bekobod	6,0	1,4	6,0			
Bo'stonliq	15,2	3,5	15,2			
Bo'ka	7,0	1,6	7,0			
Quy Chirchiq	5,7	1,3	5,7			
Zangiota	32,5	7,4	32,5			
Yuqori Chirchiq	14,2	3,2	14,2			
Qibray	25,0	5,7	25,0			
Parkent	12,3	2,8	12,3			
Piskent	6,6	1,5	6,6			
O'rta Chirchiq	10,1	2,3	10,1			
Chinoz	8,0	1,8	8,0			
Yangiyo'l	14,0	3,2	14,0			
Toshkent	16,8	3,8	16,8			

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Toshkent viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7790,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **3,4** %ga o'sdi. Shu jumladan, kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **4966,4** mlrd. so'mni (**5,5** %ga o'sdi) tashkil etdi. Ushbu sektor jami viloyat ulgurji savdo tovar aylanmasida **63,7** % ulushni tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




### Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar hamda Angren shahar (189,2 %) va Bo'ka tumanida (180,3 %) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- sentyabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- sentyabr oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- sentyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>7 790,7</b>	<b>103,4</b>	<b>2 824,2</b>	<b>99,8</b>	<b>4 966,5</b>	<b>105,5</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	591,6	93,6	263,4	82,4	328,2	105,0
Olmaliq	166,2	121,2	60,2	165,4	106,0	105,2
Angren	359,8	189,2	159,9	16758,5 m.	199,9	105,1
Bekobod	86,3	106,8	1,0	6,7 m.	85,3	105,8
Ohangaron	199,4	138,7	96,3	2,1 m.	103,1	105,4
Chirchiq	128,9	105,3	16,8	103,2	112,1	105,7
Yangiyo'l	50,6	105,3			50,6	105,3
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	38,7	105,5		47,4	38,7	105,6
Ohangaron	85,6	48,9	43,5	32,3	42,1	105,0
Bekobod	91,0	133,6	38,7	2,1 m.	52,3	105,3
Bo'stonliq	415,4	128,7	234,1	156,4	181,3	104,7
Bo'ka	64,7	180,3	26,9	964,0 m.	37,8	105,4
Quyichirchiq	96,2	104,2	6,5	87,8	89,7	105,7
Zangiota	2080,6	115,3	180,6	23,5 m.	1 900,0	105,8
Yuqori Chirchiq	186,4	105,5	1,4	72,5	185	105,9
Qibray	1 658,2	96,6	1 328,4	94,7	329,8	104,9
Parkent	77,9	105,5			77,9	105,6
Piskent	34,9	154,3	11,4	52,6 m.	23,5	105,0
O'rta Chirchiq	453,4	91,4	329,4	87,1	124	105,1
Chinoz	138,1	34,0	14,4	5,0	123,7	105,3
Yangiyo'l	77,0	93,1	0,5	4,9	76,5	105,6
Toshkent	709,9	105,5	10,7	98,3	699,2	105,7

**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES  
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR  
AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko'ra, **4966,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,5** %ga o'sdi.

Bu ko'rsatkich tuman va shaharlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyo'l (100,0 %) shahrida hamda Oqqo'rg'on (100,0 %) va Parkent (100,0 %) tumanlarida yuqori bo'ldi.



**Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
Tel.: (71) 202-86-59